



TRANSKRIPSIYA VA UNING TURLARI, AHAMIYATI

Xasanova Umida

Termiz davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: (ozbek tili) ta'limgan yonalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda transkripsiya va transkripsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda trankripsiyaning bugungi kundagi ahamyati va turlari haqida so'z yuritiladi.

Kirish so'z: transkripsiya, turlar, an'naviy, ynagi, dielektologiya

Tilshunoslikda lotin alifbosiga asoslanib tuzilgan transkripsiya xalqaro fonetik alfavit hisoblanadi, xususan, biz namuna sifatida olgan boshqird og'zaki korpusi ham mazkur grafikaga asoslanib tuzilgan. Tajribalardan kelib chiqib aytish joizki, shoir va yozuvchilarning badiiy asarlaridagi sheva birliklari transkripsiyasiz teglash orqali berilishi maqsadga muvofiqdir. Hududlar uyuştilrilgan ekpeditsiyalarlarning natijasi o'laroq yozib olingan va shevashunos olimlarning shaxsiy kutubxonalarida saqlanayotgan hamda endi o'tkazilishi ko'zlangan ekpeditsiyalar so'zrovnomalari hamda matnlarning transkripsiya orqali korpusga joylash ko'zda tutilmog'i lozim^{1,2}. V.V.Reshetov o'zbek shevalari fonetikasi, transkripsiysi, o'zbek milliy tilining dialektal asosi va shu kabi o'zbek shevashunosligening bir qator muhim masalalarini yoritib berdi. Olim yurtimizning bir necha hududlarini, jumladan, Toshkent, Marg'ilon, Namangan kabi bir qator katta shaharlarning shevalarini chuqr o'rgandi va shuning natijasi o'laroq transkriptiv shaklda ma'lumotlar tayyorladi. Prof. V.Reshetov hamda Sh.Shoabdurahmonovlar tomonida kirill yozuviga asoslangan transkripsiya tayyorlandi va mazkur transkripsiya XX asrning oxiriga qadar amalda qo'llandi³.

Lingvistikada audio va grafik yozuvda ifodalanayotgan har bir fonemaning aks ettirilishi transkripsiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va bu boradagi ahamiyatatlilik darajajasi ko'rindi. Transkripiyani amalga oshirish uchun bir qancha bosqichlardan o'tilishi kerak:

- ✓ transkripsiya rejasini ishlab chiqish;
- ✓ transkripcion belgilarning jahon standartiga to'la mos kelishini ko'rib chiqish;
- ✓ segmentatsiya (raqamli tasvirni bir nechta segmentlarga (superpiksellarga) ajratish jarayoni.) jarayonini amalga oshirish;

¹ Абдулхакимовна Х. М. Транскрипция в узбекском национальном бойсунском диалектном корпусе (Бойсунский район на примере диалекта "J") // Международный журнал по интегрированному образованию. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.//

² Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.

³ Alimbekova V. Areal shevalarning o'r ganilishi //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 12. - С.1. – С. 52-55.



- ✓ programmada tarjimani amalgा oshirish⁴.

Yozuvda so'zlashuv nutqi tovushlarini va uning barcha o'zgarishlarini talaffuz etilishicha mos ravishda to'liq ifodalab bo'lmaydi. Bunda u yoki bu tilda mavjud bo'lgan alfavitdagi belgilar yetarli bo'lmaydi. Shunga ko'ra alfavitga tegishli o'zgartirishlar kiritish talab qilinadi. Bu belgilar odatda mavjud alfavitdagi harflarning ustidan, yonidan va tagidan shartli belgilar qo'yish yo'li bilan amalgा oshiriladi yoki boshqa alfavitdan shartli ravishda belgi (harf) qabul qilinadi. Transkripsiya bilan transliteratsiya o'zaro mustahkam bog`liqdir. Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma'lum bir matnni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv tizimini orqali ifodalash *transliteratsiya* deyiladi. Masalan, arab yozuvidagi yozma manbani hozirgi amalda bo'lgan yozuv tizimi bilan berish kabi. Qiyosiy va tarixiy grammatika, filologik lug`atlar tasvirini izohlashda va nashr etishda transliteratsiyadan foydalilaniladi.

Transkripsiyaning bir qancha turlari bor. Tekshiruvchining vazifalari va maqsadlari bilan bog`liq holda uning turli ko'rinishlari qo'llanilishi mumkin. Ulardan eng ko'p qo'llaniladigani fonetik va fonologik transkripsiyadir. Fonetik transkripsiyada har bir tovush uchun maxsus belgi qo'yiladi. Fonologik transkripsiyada esa so'z, so'z shakllari va morfemalarni farqlay oluvchi har bir fonema uchun bir belgi qo'yish tamoyiliga asoslanadi. Bunda fonemaning variantlari, ya'ni tovushlarning talaffuzi hisobga olinmaydi.

Shu davrga qadar olimlar tomonidan qator transkripsiylar taklif etilgan. Shulardan dastlabkisi Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya tomonidan 1907-1908-yillarda taklif etilgan transkripsiya hisoblanadi. U fanda Xalqaro Fonetik Alfavit nomi bilan ataladi. Mazkur transkripsiya tizimi lotin alfavitidagi harflarni qisman o'zgartirish asosida tuzilgan. Unga 1925- va 1951-yillarda ma'lum bir tuzatishlar kiritilgan. Uning takomillashishisha akad. L.V.Shcherba, prof. E.D.Polivanov kabilar munosib hissa qo'shdilar. Ayni paytda uning ayrim kamchiliklari ham mavjud: a) barcha tillarning turli tovush xususiyatlari murakkab va noaniq. (Bu haqda qar. «Tilshunoslikka kirish» darsligi, 62-b.).

Fanda yuqorida transkripsiyanidan tashqari N.A.Baskakov tomonidan turkiy tillar uchun tuzilgan lotin va rus alfaviti asosidagi birlashgan transkripsiysi, G`ozi Olim Yunusov, S.Ibrohimov, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonov kabilarning o'zbek dialekt va shevalarida uchraydigan tovushlarni ifodalash uchun tuzilgan transkripsiya tizimlari ham mavjud.

Milliy istiqlol sharofati bilan o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan o'z yozuviga ega bo'ldi. Yozuv tarixidan ma'lumki, yangi yozuvga o'tish jarayonida u bilan bog`liq bir qator muammolar yuzaga keladi. Chunonchi, bu o'rinda o'tgan asrning 20-yillari oxirida arab alifbosidan lotin alifbosiga o'tish davrida yuzaga kelgan muammolarni va ularni hal etish yo'lida qilingan harakatlarni eslab o'tish kifoya qiladi.

⁴ Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.



Tilshunoslik fanida transkripsiya muhim o'rin tutadi. Yozuvning o'zgarishi yangi transkripsiya tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Bunda ikkita muhim vazifani hal etish dolzarb bo'lib turibdi. Birinchisi, zamonaviy yozuv texnikasi (kompyuterlar)ning imkoniyatlarini hisobga olgan holda yangi yozuvga mos hamda muvofiq keladigan mukammal transkripsiya (fonetik yozuv) yaratish bo'lsa, ikkinchisi, transkripsion belgilar tizimi yuzasidan bir to'xtamga kelish, qat`iylashtirishdir.

Biz ushbularni hisobga olib, maxsus belgilar tizimini ishlab chiqdik.

a – til orqa, lablanmagan, keng unli

ä – til oldi, lablanmagan, keng unli

ї – til oldi, lablanmagan, tor unli

i – til orqa, lablanmagan, tor unli

o‘ – til oldi, lablanmagan,

qisqa, ї bilan i orasidagi oraliq tovush

– til orqa, lablanmagan, oraliq tovush

u – til orqa, lablangan, tor unl

ü - til oldi, lablangan, o'rtal keng unli

o‘ – til orqa, lablangan, o'rtal keng unli

ö – til oldi, lablangan, o'rtal keng unli

Diakritik belgilar.

: (ikki nuqta) - tovushning cho'ziqligini bildiradi.

' (akut) - belgining o'ng tomoniga qo'yilsa, palatalizatsiyani, chap tomoniga qo'yilsa velyarizatsiyani bildiradi.

> va < - bir tovushning ikkinchisiga o'tishini ko'rsatadi.

II - ikki tovush yoki so'zning parallel qo'llanishiga ishora qiladi.

() - qavs ichidagi harf ba'zan nutqda talaffuz qilinmasligini bildiradi.

[] - katta qavs matndagi bo'g'in, so'z, transkripsiya qilingan so'zlamni ajratib ko'rsatishga xizmat qiladi⁵.

Ayni damda dialektologiyada ikki xil transkripsiya bor.

An'naviy va yangi transkripsiya

An'nanviy transkripsiya krill harflariga asoslangan bo'lsa, yangi transkripsiya lotin harfiga asoslangan.

O'zbek dialektologiyasida lotin tiliga asoslangan yangi transkripsiyanadan foydalanish unumli va samariliroqdir. Chunki endi kelayotga yosh avlod lotin harflariga soslangan darsliklarbi o'qib o'rganmoqda. Ularda krill harfi bilan ishlash ko'nikmasi bo'limgani uchun qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun lotin harfiga asoslangan transkripsiyanadan foydalanish kerak deb o'ylayman.

⁵ Samixon A. O'zbek dialektologiyasi //O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – 2016.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдулхакимовна Х. М. Транскрипция в узбекском национальном бойсунском диалектном корпусе (Бойсунский район на примере диалекта "J") // Международный журнал по интегрированному образованию. – Т. 3. – №. 3. – С. 105-109.//
2. Холова М. Исследование корпуса узбекских национальных диалектов //Каталог монографий. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-124.
3. Alimbekova V. Areal shevalarning o 'rganilishi //ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 12. - С.1. – С. 52-55./
4. Холова М. Практика создания диалектного корпуса узбекского языка //Каталог учебников. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 3-206.
5. Samixon A. O'zbek dialektologiyasi //O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – 2016.
6. ru.wikipedia.org/wiki/Сегментация